

BOLALAR ADABIYOTIDA IBORALARNING LISONIY-SEMANTIK XUSUSIYATI

Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi

[+99890 0767356](tel:+998900767356)

Annotatsiya: Ushbu maqolada iboralarning lisoniy-semantik xususiyati yoritilgan. Iboralardagi soʻzlarning leksik-semantik tahlildagi nomema va sememalarga ajratish masalasiga eʼtibor berildi.

Kalit soʻzlar: frazeologizm, nomema, semema, lisoniy-semantik maʼno, koʻchma maʼno

Har bir frazeologizmlarning yaralishi zamirida oʻsha xalqning sinovdan oʻtgan oʻtmish tajribasi, madaniyati, urf-odati, milliyliigi, umuman olganda, lisoniy manzara chizgilari yotadi.

Tilshunoslar A.Mamatov, B.Boltayevlarning fikricha, frazeologik birliklar madaniyat haqidagi axborotni, milliy mentalitetni ifodolovchi til birligidir. Frazeologik maʼnoning madaniy maʼno komponenti baho munosabatini anglatish bilan birga u yoki bu millatning mentaliteti, etnomadaniyati toʻgʻrisida maʼlumot beradi.¹

A.Mamatov frazeologik birikmalarning lingvomadaniy tabiati toʻgʻrisida quyidagilarni bayon qiladi: “Frazeologik birliklarning birlamchi maʼnolari deyarli yoʻqoladi yoki interpretatsiya, yaʼni talqin qiladi. Shu maʼnoda frazeologizmlar ikkilamchi til hodisasi deb qaraladi.

Tilshunos olim Sh.Rahmatullayev frazemaga quyidagicha taʼrif beradi: “Frazema til qurilishining lugʻat bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik boʻlib, bittadan ortiq leksemaning oʻzaro semantik-sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan boʻladi, shunga koʻra tuzma segment birlik deyiladi².

A.V.Kunin frazeologik birliklarni barqarorligi jihatdan 5 ta guruhga boʻlib chiqadi³:

1. Qoʻllanilishdagi barqarorlik.
2. Struktur-semantik barqarorlik.
3. Semantik barqarorlik.
4. Leksik barqarorlik.
5. Sintaktik barqarorlik.

¹ SH.T.Maxmaraimova “Hozirgi oʻzbek tili” T:”Firdavs-Shoh “2021.

² Sh.Rahmatullayev “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” T:”Universitet” 2006.

³ Ражабова М. Дунё тилшунослигида ономастик компонентли фразеологик birliklar бўйича илмий-назарий қарашлар ва муносабатлар “ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-metodik jurnal Urganch – 2020

Darhaqiqat, yuqoridagi olimlar fikrlariga qo‘shilgan holda, X.To‘xtaboyev asarlaridagi iboralarning lisoniy-semantik jihatlarini misollar orqali kuzatsak:

“**Besh bolali yigitcha**” asarida uchragan frazeologik birikmalarning lisoniy-semantik xususiyati

– Biz bolalar bo‘lsak **yetti uxlab tushimizga ham kirmaydigan** bu ajoyib tomoshaning guvohi bo‘lganimiz uchun o‘zimizda yo‘q shod, xursand edik. (76-bet)

Bu iboraning ifoda semasi “yetti uxlab tushimizga kirmaydi, ya’ni yetti hayotida ham xayoliga kelmaydi tarzida ifodalanadi. Mutlaqo o‘ylamaydigan, kutilmaydigan vaziyatga nisbatan ishlatiladi. Lekin yetti uxlab tushimizga ham kirmaydi iborasi o‘ylamagan, kutilmagan, to‘satdan leksemalari bilan sinonim ma’no berishi mumkin. Ammo ularga nisbatan yuqori daraja hissiy-emotsiya, uslubiy bo‘yoqdorlik kuchli bo‘ladi. Bolalarni xayoliga kelmaydigan voqea bo‘lganligi uchun aynan shu ibora ishlatilgan.

– Eshikka olib chiqing! – buyurdi doktor. Mukarram opam qo‘limdan tortib hovliga olib chiqa boshladi. Hech narsa bo‘lgani yo‘q, xudo xohlasa, tuzalib qoladi, deb **ko‘nglimni ko‘taryapti.** (77-bet)

Ko‘nglimni ko‘taryapti – iborasi ifoda semasi ruhlantirish, dalda berish, tasali berish ma’nolarini ifodalayapti. Aynan shu, iboraning omonimlik xususiyati mavjud bo‘lib quyidagicha ifodalashimiz mumkin. Misol uchun, bugun yegan ovqatim **ko‘nglimni ko‘taryapti** – bu o‘rinda ko‘nglini aynitish, behuzur qilish, o‘zini yomon his qilish ma’nosi ham mavjud. Varianti: ko‘ngil ko‘taruvchi, ko‘ngil ko‘targudey. Sinonimi: ko‘ngli o‘sdi – ko‘nglini o‘stirmoq. Antonimi: ko‘ngli cho‘kdi. O‘xshashi: ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi.

– Voy, **shirinim-ey** endi yemaydi. Usmonjon endi nonni yemaysan-a? Robinisam qani? Uyg‘ot, uyg‘otlinglar! Suv ... suv beringlar... Xolajon, rozi bo‘ling... bolalarim sizga qoldi... Orifjon, bolaginam ... **chirog‘im o‘chib qolmasin,** chiroq... (80-bet)

Uyimizning chirog‘i - iborasining ifoda semasiga e’tibor bersak, chirog‘ uyni yoritib turuvchi nur bo‘lsa, ota-ona ham xuddi chiroq kabi uyni yorituvchi bo‘lganligi uchun uyning chirog‘iga qiyoslanadi. Ota-ona vafot etgandan so‘ng farzandlar bu uyning egasi, nasl davomchisi. Ularni, ota-onani, xotirlab, duo qilib, eslab turadigan insonga nisbatan aytilgan bu ibora. Bu iborada ham omonimlik xususiyati mavjud. Iboralar so‘z birikmasi bilan ham vazifadosh bo‘lishi mumkin. Misol uchun, Uyimizning chirog‘i o‘chganiga 3 kun bo‘ldi. Haligacha yongani yo‘q.

– Parpi buvam **oyoqqa turguncha** detdomga borib turaylikmi? Axir, tuzalib qolsalar yana qaytib kelaveramiz-da. (84-bet)

Oyoqqa turguncha - iboraning 2 xil ifoda semasiga ega. Birinchisi, yuqorida keltirilgan misolimiz, o‘zini o‘nglab olguncha, sharoitini yaxshilab olish, ma’nosida kelyapti. Ikkinchidan, kasal insonga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin. Bunda, tuzalib ketishi ma’nosi ham bor.

– Ovozi do‘rildoq amakining **qovog‘idan qor yog‘ayotganini** ko‘rib, biz yana vahimaga tushib, yuraklarimiz ezila boshladi. Mariya Pavlovna odam qurib ketgandek bizni borib-borib mana shu badqovoqning qo‘liga tashlab ketsa-ya... Unda ahvolimiz nima kechadi? (141-bet)

qovog‘idan qor yog‘ayapti – bu iboraning semantik xususiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalo, bir narsaga e’tibor bersak, qish bu-tushkunlik, sovuqlik ramzi bo‘lsa, bahor – yoshlik, yangilanish-yasharish ramzi hisoblanadi. Shuning uchun ham qor yog‘moq – bu xafachilik, tushkunlikni ifodalayapti. Qahramonning ruhiy holatini tushkunlik, g‘azab va nafrat ifodalanayotganligi uchun shu ibora ishlatilyapti. Xafa so‘zi qovog‘idan qor yog‘ayapti iborasini yetarlicha ifodalolmaydi. Chunki qovog‘idan qor yog‘moq “xafalik, norozilik, tushkunlik” ma’nolarini beryapti. Bu iboraning sinonimi sifatida “Labi-lunji osilgan” iborasini keltirish mumkin.

– Bo‘lmasa, kim biladi deysiz, laqab qo‘yish marosimi qulochkashlab, mushmlashish, **burunlarni yerga ishqalash** bilan tugagan bo‘larmidi. (91-bet)

burunlarni yerga ishqalash – ifoda semasi, qattiq jazolash, adabini berib qo‘yish, tazirini berish kabi ma’nolarida kelyapti.

– Tezroq ke1, eshak mingan bobong keldi, - deb qo‘shimcha ham qilib qo‘ydi o‘sha ovoz. Bobom, bobojonim!... **oyog‘imni qo‘limga olib yugurdim**, rost, rost ekan! (130-bet)

oyog‘imni qo‘limga olib yugurdim – bu ibora tezlikda, shoshish, chaqqonlik bilan harakat qilish ma’nosi bor. Qahramon hayajondan, sevinchdan ichiga sig‘masdan harakat qilmoqda. Bu o‘rinda tez yurdi desa ham bo‘lardi, lekin ibora berganchalik ta’siri kuchli bo‘lmasdi. Oyog‘im olti, qo‘lim yetti bo‘lib xizmat qildim degan iborani ham sinonim sifatida ishlatsak bo‘ladi. Bu o‘rinda ham, tezlik chaqqonlik semantik xususiyatini ifodalanayapti.

– Omon **o‘zini qo‘yarga joy topolmay** irg‘ishlagan, Bibirobiya yangi kiyimlarini ko‘z-ko‘zlab goh bobom, goh xolajonim bilan achomlashib ketgan, Usmon ukam ochko‘zlik bilan qatlamaga yopishgan, Sulton o‘rikni danagi bilan yutib tiqilib qolgan... (131-bet)

O‘zini qo‘yarga joy topolmay – bu iborani ikki xil vaziyatda ishlatish mumkin. Birinchidan, biror voqeadan kuchli ta’sirlanganda, hayajonda yomon xabar eshitganda; Ikkinchidan, quvonarli voqea ro‘y berganda xursandchiligi ichiga sig‘may ketganda.

Odatda ikkinchi holatni kuzatishimiz mumkin. Uzoq ayriliqdan so‘ng xolasi bilan uchrashish quvonchiga nisbatan ishlatilayapti.

– **Ko‘z yumib ochguncha** atrofimizni bolalar o‘rab olishdi. O‘rig-u olchalardan hammalariga ulashib chiqdim yigirmata qatlamani bir burdadan arang yetkazibman deng. (132-bet)

Ko‘z yumib ochguncha – tez fursatda, qisqa muddatda degan ma‘noni beradi. Bu ibora ko‘proq umrga nisbatdan ishlatiladi. Bu yerda esa tez fursatda ma‘nosini beryapti.

- So‘nggi kunlarda uning kulganini hech ko‘rmagandik direktorimizning **qulfi-dili ochilganidan**, avvalgi quvnoq O‘ris xolamizni yana topib olganimizdan

biz yetimchalar o‘zimizda yo‘q sevinib ketdik. (137-bet)

qulfi-dili ochilganida – bu ibora birovni ko‘nglini topish, u nimani istaganini bilish, ko‘ngliga yo‘lni (ya‘ni kalitni) topish ma‘nosini berayapti. Asarda ham bu ibora orqali qahramon anchadan buyon xafa yurganini, endi xursand bo‘lganini ifodalaydi.

– Qani, **qulog‘im senda**, - qistadi askar amaki.

– Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, - deb xuddi Roziq tog‘amga o‘xshab bir kulib oldim... (137-bet)

qulog‘im senda – bu yerda diqqat bilan tinglash, ma‘nosini berib, “quloq soldi” iborasi bilan sinonim hisoblanadi. Qahramonning butun diqqat e‘tiborini unga qaratganlik ma‘nosini ifodalayapti.

– To‘satdan uchratib qolsam-a, degan umidda yurishdan to‘xtab atrofga alang-jalang **ko‘z tashlab olaman**, militsiya idorasiga borib, eshigining tepasiga qiyshiq harflar bilan “Navbatchi” deb yozib qo‘yilgan xonaga kirdim. (146-bet)

ko‘z tashlab olaman – qisqa muddatda qarab olmoq ma‘nosini ifodalayapti. O‘xshashi: ko‘z yugurtirmoq, ko‘z qirini tashlamoq. Varianti: nazar tashlamoq, nigoh tashlamoq.

“Sariq devning o‘limi” asarida frazeologik birikmalarning semantik xususiyati⁴:

1. Kerak bo‘lsa, men **qo‘ydek yuvosh** bo‘laman, kerak bo‘lsa, tulkidek ayyor bo‘laman, sharoit taqozo qilsa, sherdek hamla qilaman.... Oralarida bittasi sal **oq ko‘ngilroq**... o‘shandan ish chiqishi mumkin. (61-bet)

⁴ Xudoyberdi To‘xtaboyev. Sariq devning o‘ limi. «Yangi asr avlodi», 2017-yil.

Qo‘ydek yuvosh – iborasi bo‘sh, bo‘shang, rahimdil ma‘nolarini berayapti. Bu ibora” qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan bola” iborasi sinonim bo‘la oladi.

Oq ko‘ngil – halol, pok, toza qalbli ma‘nolarini beryapti.

– Uch oy yoningda saqlaysan-u, qanaqa pullar ekanligini bilmaysanmi? O‘rozvoy, ko‘rib turibmanki, halol, rostgo‘y yigitsan, yolg‘on gapirib o‘rganmagansan. Shuning uchun ham **ko‘zingni olib qochyapsan**. Ko‘zlaring esa, hamma gapni aytib turibdi. (62-bet)

Ko‘zingni olib qochyapsan – turli holatda ishlatilishi mumkin. Misol uchun, hayajondan, uyatdan, yolg‘on gapirganda ishlatiladi. Bu yerda qahramon yolg‘on gapirib o‘rganmaganligi uchun uyatdan ko‘zini olib qochgan.

Men o‘rtoq Ro‘ziyevga tuhmat uyushtirilganidan xabardorman. Odil emas, kazzob, muttahaam u, **uchiga chiqqan** poraxo‘r u. Shahar savdo inspeksiyasiga ham, drujinachilarga ham tuhmat qilgan. Bechoralar tekshirgani kelgani bezillashadi. (65-bet)

Uchiga chiqqan – Haddan tashqari, juda ham ko‘p degan ma‘noni bildirib, haqarot, bo‘rtirish ma‘nosida kelyapti.

Shunday qilib, uchovlari jamuljam bo‘lib o‘tirishibdi. Kapitan Hoshimova “baxtiqaro” direktorning papkasini uzoq varaqladi, nihoyat, boshini ko‘tarib:

– **Yotib qolguncha otib qol**, qabilida ish tutishyapti. Xo‘sh, Salimjon aka, endi nima qildik? - deb so‘radi. (76-bet)

– Yotib qolguncha otib qol – ifoda semasiga ko‘ra ko‘p o‘ylamasdan ishni bitirish ma‘nosida kelyapti. “O‘ychi o‘ylab o‘tirguncha tavakkalchi ishini bitiradi” iborasi sinonim bo‘la oladi.

5. Qing‘ir-qiyshiq, pastqam ko‘chalardan, o‘g‘ri topmas tor yo‘llardan yurib, nihoyat, jarlik yoqasiga borib to‘xtadik. **“Baxtiqaro”** direktor mashinadan tushib shofyorga bitta o‘n so‘mlik uzatdi: (94-bet)

“Baxtiqaro – iborasining ifoda semasi hayoti xorlik-zorlik bilan, azobda o‘tadigan insonlarga nisbatan ishlatiladi.

– Bilasanmi, Hoshimjon, - derdi ba‘zan u, - yuz minglab vijdonli halol yashayotgan kishilar ichida ba‘zan bitta-ikkita turqi sovug‘i ham uchrab qoladi-yu, hammaning **dilini siyoh** qiladi, oromini o‘g‘iraydi. (102-bet)

- dilini siyoh – bizga ma‘lumki, siyoh qora rangda bo‘lib, insonni dilini(yuragi)ni shunga qiyoslaydi. Xafagarchilik, dilni xufton bo‘lishi ma‘nolarini beradi. “Yuragimga chiroq yoqsa ham yorishmaydi” iborasini sinonim sifatida ishlatish mumkin.

– Seni o‘z o‘rnimga tuman militsiyasiga boshliq qilib tayinlashlarini so‘raganimda, – qoshlarini kerib, har bir so‘zini takidlab gapira boshladi Salimjon

akam, – boshqalar ham, bu “**ona suti og‘zidan ketmagan yigitcha nima karomat ko‘rsatarkan?..**” – deb kulishgan edi. (107-bet)

Ona suti og‘zidan ketmagan – bu ibora kesatliq piching sifatida ishlatilib, yosh ko‘rish, o‘zidan past bilish ma‘nolarida ishlatiladi.

X.To‘xtaboyev atash semasi umumiy bo‘lgan, ifoda semasi bilan farqlanuvchi iboralardan ham unumli foydalangan:

- Og‘zining tanobi qochib – og‘zi qulog‘ida - ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilib ketadi-do‘ppisini osmonga otmoq kabi iboralarda ko‘tarinkilik, xursandlik ma‘nolarini ifodalab ijobiy baholash ottenkasiga ega.

Podadan oldin chang chiqarmaslik – yetti o‘lchab bir kes. Ikkala ibora ham shoshmaslik, mulohaza qilib o‘ylab fikr yuritishga da‘vat etish ma‘nolarini ifodalayapti.

Ipidan-ignasigacha – miridan sirigacha atash semasi umumiy bo‘lgan iboralar hisoblanadi⁵.

Burnini yerga ishqalamoq – sho‘riga sho‘rva to‘kmoq. Ikkala ibora ham salbiy baholash ottenkasiga ega bo‘lib, tazirini bermoq atash semasiga ega.

Yuqoridagi misollar orqali iboraning tilimizdagi ahamiyatiga, qahramonlar ruhiyatini, uning ichki hissiyotlarini ifodalashdagi ahamiyatiga guvoh bo‘ldik. Frazva va leksemani sinonim sifatida ishlatish mumkin. Lekin leksema ibora kabi hissiyotga, emotsiyaga, uslubiy bo‘yoqqa boy bo‘lmaydi.

⁵ Hayriddin o‘g‘li S. N. O ‘ZBEK TILIDA GIPONIMIYA HODISASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 23. – №. 2. – C. 27-29.